

JISMONIY HARAKATLAR TEATRI VOSITASIDA MOTORIK FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHDA KREATIV YONDASHUVLAR

Nazirova Guzal Malikovna

Qo`qon davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD

Valiyeva Gulshoda

Qo`qon davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy harakatlar teatri, jismoniy harakatlar teatrini kreativ yondashuv vositasida tashkil etish haqida ilmiy va nazariy ma`lumotlar keltirilgan bo`lib, jismoniy harakatlar teatridan namuna keltirilgan, maktabgacha ta`lim tizimiga jismoniy harakatlar teatrini vosita sifatida kiritish zarurati izohlangan.

Kalit so`zlar: maktabgacha yosh, bola, jismoniy rivojlanish, ta`lim tizimi, jismoniy harakatlar teatri, vosita, vazifa, zarurat.

Jismoniy harakatlar teatri kreativlikka asoslangan bo`lib, bolalarning jismoniy rivojlanishi, shuningdek emosional, ijtimoiy, kognitiv, kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantiruvchi pedagogik konsepsiya hisoblanadi. “Kreativlik” – ko`p mazmunli, keng qamrovli atama hisoblanib, so`nggi vaqtarda jismoniy tarbiya o`quv mashg`ulotlarida, turli sport sohalarida ham keng qo`llanilmoqda.

Jismoniy harakatlar teatri kreativ yondashuv vositasida tashkil etilib, bolalarning tasavvuriga mosligi, ruhiyati va qiziqishlarini qamrab oladi, ularni kreativlikka va o`z qobiliyatlarini namoyon etishiga imkon beradi hamda qo`llab-quvvatlaydi. Jismoniy harakatlar teatri integrativ xarakterga ega bo`lib, bolalarni jismoniy faoliyikka, boshqalar bilan o`z faoliyatining mutanosibligi, monandligini kuzatish, ma`lum qoida va talablar asosida adekvat harakat qilishni rivojlantiradi.

Jismoniy harakatlar teatri keng qamrovli faoliyatlar majmuasi bo`lib, jismoniy tarbiya, san`at, raqs, aktyorlik mahorati, ijtimoiy ko`nikmalar, ruhiyat kabi sohalarni birlashtiradi. Aslida kundalik harakatlar va turli xil harakatli o`yinlarni o`ylab topishga undaydigan kundalik vaziyatlar – jismoniy harakatlar teatrining boshlang`ich nuqtasi hisoblanadi. Yuqorida bildirilgan fikrlar jismoniy harakatlar teatri ta`lim oluvchilarni qaysi jihatdan qo`llab-quvvatlashini aniqlashtirishni taqozo etadi.

Birinchidan, jismoniy harakatlar teatri bolani individual harakat qilish, ma`lum vazifa, rol yoki funksiyani ijro etishni o`rganishlari va shu orqali ularning jismoniy rivojlanishlarini qo`llab-quvvatlashni maqsad qiladi. Jismoniy harakatlar teatrining eng ahamiyatli jihat, turli kreativ g`oyalarni shakllantirish va mazkur g`oya asosida jismoniy harakatlar teatrini sahnalashtirishdan iborat. O`z navbatida bolalarning harakatlariga ustuvorlik bergen holda, ularni yangi g`oyalarga va ularni realizasiya qilishga undash – tarbiyachi-pedagogning vazifasi hisoblanadi. Bolalarda kreativlikni oshirish uchun ma`lum bir mavzu emas, balki uslubiy yondashuv hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Ikkinchidan, jismoniy harakatlar teatrini nafaqat kreativ mashg`ulot sifatida, balki uni bolalar jismoniy rivojlanishining maqsadi va vositasi sifatida ko`rish maqsadga muvofiqdir. Individual harakat va o`yinlar orqali yondashish esa bolani nafaqat kreativlikka undash, balki jismoniy tarbiya orqali ularni tarbiyalash nuqtai nazardan ham imkoniyat yaratadi. Jismoniy harakatlar teatri jismoniy tarbiya orqali bola shaxsining turli rivojlanish sohalarini qamrab oladi va ularni kombinasiyalashgan holda rivojlanishini ta`minlaydi. Bu esa jismoniy harakatlar teatrining o`ziga

xos shakli bo‘lib, uni ifoda etish va dizayn vositasi hisoblanadi. Qo‘llanilgan harakat turiga qarab harakat teatrining turli xil jihatlarini sanab o‘tish mumkin, masalan: tana (yoki jism) teatri, raqs teatri, sport teatri yoki pantomima.

Pedagogik jihatdan olib qaraganda, kreativ ishlash jarayonini doim birinchi o‘rinda turishi juda ham muhimdir. Oldindan tayyorlangan ssenariylar emas, balki boshqalar bilan o‘yin mobaynida har safar yangi o‘ylab topilgan improvizasiyadagi harakatlarga harakatiga teatrige xosdir. Buning uchun taniqli harakat texnikalaridan, ya’ni pantomima, sport yoki raqsdan foydalanish mumkin, ammo hal qiluvchi omil har doim bu – harakat shakllarini mustaqil ravishda boshqarish, o‘z harakat kontekstlari va ularning mohiyatini rivojlantirishdir.

Jismoniy harakatlar teatri tarbiyalanuvchilarda mas’uliyat hissini rivojlantiradi. Belgilangan vazifani to‘laqonli bajarish orqali ularda mas’uliyatni sezish, mas’uliyatni o‘z faoliyati tarkibiga singdirishni o‘rganadi. Pedagogik va psixologik jihatdan tarbiyalanuvchilarda mas’uliyat hissini bu tarzda rivojlantirish maqbul variant sifatida qaraladi.

Jismoniy harakatlar teatri uchun o‘ziga xos bo‘lgan yana bir jihat – harakat, o‘yin va tartiblilik, bu esa bola hayotining asosiy qoidalari sifatida qaralishi mumkin. Antropologik tadqiqotlar ham shuni ko‘rsatadiki, hayoti o‘yindan, musiqa kashf etishdan va raqsga tushishdan iborat bo‘lgan xalqlar uchun bu uch tushuncha xarakterlidir.

Misol uchun “Texnikalar” sahnasi texnikasini ko‘rib chiqsak. Bolalar turli xil texnikalarning harakatlarini mazkur texnikalarning ishlash prinsipiiga mos ravishda improvozasiya qilishadi. Avtomobil haydash, kran, samolyot, motosikl. Pedagog tomonidan bolalarga mazkur texnika vositalarini rasmi yoki ekranda namoyon qilishi bolalarning tasavvur qilishi uchun yordam beradi.

Shuningdek, tarbiyachi-pedagog tomonidan turli texnikalarning harakatlariga mos keluvchi musiqalar tanlab olinadi. Bolalar tomonidan tarbiyachi-pedagog ko‘rsatgan rasm va musiqaga muvofiq, kreativ yondashgan holda o‘zlariga mos harakatlar tanlashi mazkur sahna ko‘rinishining maqsadi hisoblanadi. Mazkur sahna ko‘rinishi 3-5 minut davom etishi maqsadga muvofiq.

Tadqiqot doirasida mazkur sahna ko‘rinishining tadbiq etishi muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Bolalarning nafaqat jismoniy harakatlar orqali jismoniy rivojlanishi, balki turli texnika vositalarining ishlashi, harakatlanishiga doir texnik tasavvurlarini shakllantirishda ahamiyatli ekanligi alohida e’tirof etildi.

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagoglari tomonidan didaktik masalalarni aniq va tushunarli ifodalash va unga mos keladigan pedagogik texnologiyalar tanlash yoki ishlab chiqishga kam e’tibor berilishini ko‘rshimiz mumkin. So‘nggi me’yoriy hujjatlarda yangi pedagogik texnologiyalarga katta e’tibor qaratilmoqda. Yangi pedagogik texnologiyalar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘quv-tarbiya jarayonini loyihalashda zamonaviy, innovatsion yondashuvlarni hisobga olishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydag‘i “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi to‘g‘risida”gi PQ-4312-son Qarori / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019-y., 07/19/4312/3106-son; 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF 5924-sonli “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish choratadbirlari to‘g‘risida gi Farmoni / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 25.01.2020-y., 07/20/5924/0081-son, 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-son; 31.10.2020-y., 06/20/6099/1450-son.
3. Axunov Umidbek Ruzibayevich, Jismoniy harakatlar teatri vositasida maktabgacha yoshdag‘i bolalar motorik faoliyatini rivojlantirish metodikasi PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa

doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya UDK: 373.21:796 (575.1) 2023

4. Torrence E.P. Developing creative thinking through school experience. // N.Y., 1962. – P. 215.
5. Usmonxo‘jayev T. 1001 o‘yin. – T.: Medisina, 1999. – B. 350.
6. Чумакова С.В., Штерн Л.В. Методическая разработка: театр физического воспитания в образовательном процессе ДОУ” // Усть-Лабинск, 2018. – С. 65.
7. <https://znanio.ru/media/jismoniy-harakatlar-teatri-vositasida-maktabgacha-yoshdagi-bolalar-motorik-faoliyatini-rivojlantirishning-pedagogik-tizimi-2816578>. Murojaat etilgan sana: 01.11.2023 y.
8. Nazirova G Malikovna, CONTENT AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS AND EDUCATORS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS- INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & ..., 2022
9. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=ozrGWXoAAAAJ&citation_for_view=ozrGWXoAAAAJ:_FxGoFyzp5QC
10. Anvarovna, Sultonova Nurxon, and Xalkuziyeva Dilnoza Baxodirovna. "PROBLEMS OF WORKING WITH PARENTS OF CHILDREN NOT INVOLVED IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS." *International Journal of Early Childhood Special Education* 15.1
11. Anvarovna, Sultonova Nurkhon. "Some Aspects of the Maria Montessori Method in the Education of Preschool Children." *INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION* 1.6 (2022): 169-173. (2023).

